

AMALIY DARSLARDA- TA'LIM JARAYONI TA'LIM OLUVCHINING MAQSAD VA EHTIYOJLARIGA MUVOFIQ TASHKILLASHTIRILISHINING SAMARADORLIGI

Kirgizbayeva Ra'no

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Libos dizayni kafedrası

o'qituvchisi r.ibrohimova@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada, bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilayotgani va Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion ta'lim, interfaol usullarini, didaktika, o'qitish samaradorligi.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается тот факт, что сегодня в ряде развитых стран под названием интерактивные методы разрабатываются методы, которые формируются на основе обширного опыта использования современных педагогических технологий, гарантирующих эффективность образовательного процесса, и что интерактивные методы обучения в настоящее время являются наиболее массовыми и широко используемыми методами во всех типах образовательных учреждений.

Ключевые слова: *инновационное образование, интерактивные методы, дидактика, эффективность обучения.*

ABSTRACT

The article examines the fact that today in a number of developed countries, methods called interactive methods are being developed that are formed on the basis of extensive experience in the use of modern pedagogical technologies that guarantee the effectiveness of the educational process, and that interactive teaching methods are currently the most widespread and widely used methods in all types of educational institutions.

Keywords: *Innovative education, interactive methods, didactics, learning effectiveness.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Xulosa shuki, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

REFERENCES

1. Ra'no, K. (2025). LIBOS DIZAYNI TA'LIMIDA ASRLAR DAVOMIDA RIVOJLANIB, O'ZGARIB, YANGILANIB KELGAN MODANING O'RNINI VA RIVOJLANISH OMILLARI TALQINI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 80(1), 337-343.
2. Ernazarovna, U. G. (2022). The Formation of the design term and history of development. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 96-102.
3. Gayratdjonovna, X. D., & Sh, Y. S. (2025). ZAMONAVIY MODA VA REDIZAYN: "BARQAROR MODA" NING USTUVOR TAMOYILI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 80(1), 320-328.
4. Tursunpo'latova, D. R. Q. (2021). KIYIMDAGI "NEW LOOK" USLUBI, KELIB CHIQISH TARIXI VA ZAMONAVIY MODA YO'NALISHIDA AKS ETISHI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 752-762.
5. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). Yosh rassomni o'qitishda samarali usullardan foydalanish. *PEREKRYOSTOK KULTURASI*, 1(4).
6. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, Gulmira Rifovna Tojiboeva
7. Zaripova, M. A. (2020). MODEL YARATISHNING ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARIDA ISHTIROKI. *PEREKRYOSTOK KULTURASI*, 2(4).

8. Komilova X. X., Vohidova U. A. “Loyihalash”, OO’Yu uchun o’quv qo’llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya.
9. http://vtk34.narod.ru/petruk_osnovimodelirodejdi/book/book12.htm
10. https://studref.com/638080/kulturologiya/ispolzovanie_tsveta_kollektsi
11. Umarova, G., & Rashidov, A. (2024). IJODIY FAOLIYAT UCHUN, O ‘QUV MASHG ‘ULOTLARINING O ‘ZIGA XOS USLUBIY CHIZMASIGA EGALIGI, IJODKORLARNING EKSPERIMENTAL ISHIGA KATALIZATOR BO ‘LIB XIZMAT QILISHI OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 147-147.
12. Usmanova, N. (2022). MODA SANOATIDA “ZERO WASTE” NING O ‘RNI VA UNING O ‘ZIGA XOS KONSEPSIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1121-1129.
13. Гайсина, Р.Ш.. «ZERO WASTE» КАК НАПРАВЛЕНИЕ БЕЗОТХОДНОГО ПРОИЗВОДСТВА ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ ОДЕЖДЫ. 145-150.
14. Nishanova, S. D. (2022). ZAMONAVIY PODIUMGA 80-YILLAR MODASINING QAYTIB KELISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 189-195.